



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH VA TRANSFORMATSIYA

Tohirov Sharofiddin

Universitet: Millat Umidi Fakulteti: Xalqaro biznesni boshqarish 4-kurs talabasi

Gmail:Sharofiddintohirov303@gmail.com

Anootatsiya: Ushbu tezisda biznes boshqaruvida raqamli texnologiyalarni qo'llanishi va ularning samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar har qanday sohaga shiddat bilan kirib kelmoqda, shu bilan birgalikda biznesda ham muhim ro'l o'ynaydi deb ayta olamiz. Shuningdek marketing, ishlab chiqarish, mijozlar bilan ishlash, maxsulotni sotish va shu kabi boshqa muhim omillarga ijobiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shu bilan birgalikda biznesda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: biznes, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, transformatsiya

Raqamli texnologiyalarning kirib kelish tarixi bu insoniyatning aborot saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlari boshlanganidan boshlangan. Dastlabki davr (1940-1960) raqamli hisoblashning tug'lishi, ya'ni birinchi electron mashinalari (ENIAC, EDVAC, UNIVAC) yaratildi. Aynan mana shu texnologiyalar hozirgi kunga kelib biznesda eng oddiy texnologiyalardan biri hisoblanadi. (2000-2010) yillar mobil va raqamli media davri hisoblanadi.

Ya'ni mobil telefonlar, keyinchalik smartfonlar paydo bo'la boshladi. 2010-yildan hozirgacha esa sun'iy intellekt, Blokcheyn, 5g texnologiyalar jadal rivojlana boshlandi. Albatta bundy texnologiyalar har qanday biznesni rivojlantishi turgan gap. Raqamli transformatsiyalarning biznesda qo'llanishi - bu zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida korxona va tashkilotlarning ish jarayonlarini, xizmat ko'rsatish usullarini hamda mijozlar bilan munosabatlarni tubdan o'zgarish jarayonidir.

Raqamli transformatsiyalarning biznesdagi mohiyati deganda biznesdagi strategik, tashkiliy va texnologik jihatdan raqamli muhitga moslashishidir. Ularning asosiy maqsadlari ish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga qulay va tezkor xizmat ko'rsatish, yangi raqamli mahsulot va xizmatlarni yaratishdir. Masalan internet do'konlar (uzum, olx, ozon) raqamli tulov tizimlari (payme, click, paynet). Raqamli transformatsiyaning biznesga ta'sir etuvchi yo'nalishlari marketing va savdo, ishlab chiqarish, moliya, kadrlar boshqaruvi, mijozlar bilan aloqa. Biznesdagi raqamli transformatsiya bosqichlari

1. Raqamlashtirish (qog'ozdagi hujjatlarni electron shaklga o'tkazish) bunda har qanday turdagi eski hujjatlar electron shaklga o'tkazilib tizimlashtiriladi.

2. Raqamli integratsiya (ish jarayonini IT tizimlar orqali avtomatlashtirish) ya'ni har qanday ish faoliyatini masofadan turib boshqarish imkonini beruvchi tizim. 3. transformatsiya (butun biznes modelni raqamli iqtisodiyot talablariga moslab o'zgartirish. Raqamli



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

transformatsiya asosida dunyo amaliyotidan misollar: Amazon- sun'iy intellekt orqali mijozlarga takliflar beradi, masalan ular o'z mijozlarini talab va takliflarini o'rgangan holda mijozlarga qulay va sifatli xizmatlarini taklif qilishadi. Netflix- o'z foydalanuvchilarini hisobga olgan holda o'z xizmatini taklif etadi, masalan odamlarga qanday kontentlar yoqadi shunga qarab o'z taklifini beradi.

Tesla-avtomobillarni masofadan boshqarish imkonini beradi, ya'ni insonlar o'z avtomobillaridan uzoq masofada bo'lib turib ham avtomobili qanday ahvolda ekanligidan xabardor bo'lishlari mumkin bo'ladi. McDonald's- mijozlar buyurtmalari raqamlashtirilgan va sun'iy intellekt orqali navbatlar boshqarib boriladi, bunda mijozlar navbatlarini nazorat qilib, ketma-ketlikni ta'minlab turadi. O'zbekiston hududidagi transformatsiyalashgan bizneslarga misol keltiramiz, bularga Payme, Click, Apelsin kabi yirik loyihalar raqamlashtirildi.

Bunda mijozlar Express24 Yandex Go, bular logistika va xizmat ko'rsatish xizmatlarini raqamlashtirgan. Va hozirgi kunda ko'plab korxonalarda CRM va ERP tizimlari joriy etila boshlangan. Bunday loyihalar albatta har qanday biznesni rivojlanishiga shaffoflikni oshishi bilan birgalikda aniq va kuchli tizim paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda har qanday biznes turini boshlashdan oldin, bu biznesni raqamlashtirishni reja qilib, dunyo standartlariga javob beradigan dasturlar va loyihalarni jalb qilishni yo'lga qo'yish kerak. Chunki biznesni raqamlashtirish biznesni tezroq rivojlanishiga, va o'z mijozlarini tezroq topishga, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga juda katta yordam beradi,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

<https://ict.xabar.uz/uz/startap/raqamli-transformatsiya-biznesning-rivojlanishiga-qanday-yordam>

<https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/3640>